

## “YUSUF VA ZULAYHO” MAVZUSIDAGI ASARLARNING QIYOSIY TAHLILI

Imomova Diyora

Kattaqo‘rg‘on Davlat Pedagogika instituti

Filologiya va ijtimoiy fanlar o‘zbek tili adabiyot yo‘nalishi 25\_16 - guruh talabasi.

Suyunova Dilbar

Ilmiy raxbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20352614>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada “Yusuf va Zulayho” dostonining nusxalari o‘rtasidagi qiyosiy tahlil o‘rganiladi va ular o‘rtasidagi o‘xshashliklar hamda farqli jihatlar ko‘rib chiqiladi.

Durbekning “Yusuf va Zulayho” dostonining shu turkumdagi dostonlar ichidagi ahamiyati hamda Yusuf va Zulayho obrazlari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** “Tavrot”, “Injil”, Qur‘oni Karim, Yusuf, Zulayho, Azizi Misr, Durbek, aruz, (muftailun, muftailun, foilun) sayyor syujet, Abdurahmon Jomiy.

**Abstract.** This article examines the comparative analysis of different versions of the epic “Yusuf and Zulayho” and discusses the similarities and distinctive features among them. The study also highlights the significance of Durbek’s “Yusuf and Zulayho” within this group of epics and provides observations on the characters of Yusuf and Zulayho.

**Keywords:** Torah, Bible, Qur‘an, Yusuf, Zulayho, Aziz of Egypt, Durbek, aruz meter, (muftailun, muftailun, foilun), wandering plot, Abdurahmon Jomiy.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается сравнительный анализ различных версий поэмы «Юсуф и Зулайхо», а также изучаются их сходства и отличительные особенности. Особое внимание уделяется значению поэмы Durbek «Юсуф и Зулайхо» среди произведений данного цикла, а также образам Юсуфа и Зулайхо.

**Ключевые слова:** Тора, Библия, Коран, Юсуф, Зулайхо, Азиз Египта, Дурбек, аруз, (муфтаилун, муфтаилун, фоилун), странствующий сюжет, Абдурахмон Джомий.

Sharq xalqlari orasida qadimdan mashhur bo‘lgan qissalardan biri “Yusuf va Zulayho”dir.

Bu sayyor syujet, “Tavrot”, “Injil” hamda islom dinining muqaddas kitobi Qur‘oni Karimda ham uchraydi. Sharq adabiyotining buyuk darg‘alari Firdavsiy, Kisoiy, Abdurahmon Jomiy kabilar arab va fors tillarida, Qul Ali, Shayyod Hamza, Nosuriddin Rabg‘uziy, singari ijodkorlar esa Durbekka qadar turkiy tilda yozgan asarlarida mazkur qissaga murojaat etishgan. Bu asarlar orasida Durbekning “Yusuf va Zulayho” dostoni alohida ahamiyatga ega. Durbek o‘sha paytda yuz bergan tarixiy voqelikni konkret masalalarda tasvir etgandan so‘ng, dostonning asosiy qismi hikoya qilishga kirishadi. Dostonda tasvirlanayotgan asar qahramonlari faoliyati O‘rta Osiyo shahar va qishloqlariga xos tabiat manzaralari, turmush hodisalari, xalq urfodatlari bilan chatishib ketadi. Yaqub bolalari o‘rtasida tug‘ilgan bir-birini ko‘ra olmaslik kayfiyatlari uning oilasidagi aka-ukalar orasida tug‘ilgan ziddiyat bilan to‘qnashadi. Dostonda berilgan bu oilaviy konflikt Temur va uning o‘g‘il-nabiralari ham taalluqlidir. Chunki Temur o‘lgach, uning xotinlari va ulardan tug‘ilgan bolalar sulton taxtini egallashga uringan edilar. O‘zaro qonli kurashlarning kelib chiqish sabablaridan biri shu edi. Bu urushlarning og‘irligi mehnatkash xalq zimmasiga tushmasdan qolmasdi. Balx shahrining uch oy qamalda qolib ketishi bunga yorqin misoldir.

Shuning uchun ham Durbek bosqinchilik urushlarini qoralaydi. U bunday urushlarga qarshi chiqqanligini ifodalovchi misralarni ochiq yozmasa ham dostonning boshlang'ich qismiga kiritilgan va yuqorida qayd qilingan Balx qamalini tasvirlovchi epizod shoir poeziyasini aniqlashda yetarli material bo'la oladi. Shoir keyingi boblarda dostonning oxirigacha Yusuf taqdiri va uning hayotiga bo'lgan munosabatini turli bosqichlarda hikoya qiladi. Shoir o'z qahramoni Yusuf faoliyatini berishda tobora dunyoviy hayotga yaqinlashib boradi. Unda insoniy fazilat ustunlik darajasiga ko'tariladi. Yusufdagi insonga xos bo'lgan ijobiy fazilatlar uning donoligida, xalqparvarligida, xushmuomalaligida, vatanparvarligida otasiga bo'lgan farzandlik muhabbati kabilarda ochiq seziladi. Yusufdagi bu hislatlar xalq uchun qayg'uruvchi, insoniy fazilatlariga ega bo'lgan kishilargagina xosdir.

Durbek o'zbek dunyoviy adabiyotida yaratilgan ijobiy ayollar obrazini yanada konkretlashtirdi. Shoir Zulayho qiyofasida haqiqiy sevgi egasi bo'lgan ayol obrazini yarata olgan.

Zulayho umidsizlikka tushmaydi. U tushida ko'rib oshiq bo'lgan Yusufga yetishmoq uchun har qanday og'irliklarga bardosh beradi. Zulayho hatto Misr Aziziga yanglish turmushga chiqsa ham istiqomat qiladi. Durbek dostonida baxtsizlikdan qutulmoq uchun chidash, sabr-toqat qilish kerakligini aytadi.

Dostonlarda har bir shoir o'z davrining muhim voqealari, ahloqiy va falsafiy qarashlarini aks ettirishga intilganlar. Masalan Durbekning "Yusuf va Zulayho" dostonida shaharning qamal qilinishi, Yusuf obrazining talqini ham turlicha. Yusuf ilk dostonlarda Yusuf va Zulayho ilohiy obraz markazida tasvirlansa keyinchalik Yusuf va Zulayho muhabbati dunyoviy talqin qilina boshlandi. Durbek va Abdurahmon Jomiy dostonlarida bosh qahramonlari Zulayhoni go'zal qiz sifatida tasvirlaganlar. "Yusuf va Zulayho" dostoni an'ana bo'yicha Durbekka tegishli deb kelinadi. Ammo fransuz olimi E. Bolshe doston Navoiyniki degan qarashlarni ilgari suradi. Afg'on olimi Juzjoniy Homidiy Balhiyga nisbat beradi. "Yusuf va Zulayho" dostoni haqidagi ilmiy tahlillar qo'llanmaning kengaya borishi natijasida adabiyotchi va tarixchi olimlar o'rtasida munozarali fikrlar ham yuzaga kela boshladi. Jumladan asrimiz boshida "Yusuf va Zulayho" dostonining ilk tadqiqotchisi fransiyalik Eduard Bloshe Parij Milliy kutubxonasida saqlanayotgan qo'lyozmalari tavsifini berar ekan asarni Navoiy qalamiga mansub deb yozadi.

Yusuf va Zulayho obraziga XX asrning yirik so'z ustalari Nozim Hikmat va T. Mannlar ham murojaat qilganlar. T. Mann "Yusuf va uning akalari" asarini Nozim Hikmat "Go'zal Yusuf" asarini yaratdi. Asarning keng tarqalishi va shuhrat qozonishiga asosiy sabab uning mazmun mohiyatidagi muhabbat talqinidir. Muhabbat deganda faqat bandasiga emas balki, ollohga bo'lgan muhabbat ham anglashiladi. Durbekning hayoti bilan bog'liq ba'zi ma'lumotlar "Yusuf va Zulayho" dostonining muqaddimasida keltiriladi, xolos. Muallif asarning yozilgan yilini abjad hisobiga asoslanib quyidagicha ifodalaydi:

"Zod "edi tarix yana "xe" yu "dol",

Muddati hijratdin o'tub mohi sol

Abjad hisobiga ko'ra "zod"-800, "xe"-8, "dol" esa 4ga teng. Ularning yig'indisidan 812 hijriy yil kelib chiqadi. Uni milodiy yilga aylantirsak, 1409-yilga to'g'ri keladi. Shoir doston muqaddimasida shu yili "jumla akobir"lar-u "nabi-yu vali"lar bag'rida sokin, abadiy uyquga ketgan "ummul bilod"- shaharlar onasi bo'lgan Balx qamal qilinganligini iztirob bilan yozadi.

Yozning sarhil mevalari pishgan paytda Shahar ahlining butun noz -ne'matlardan bebahra qolgani Durbekni chuqur iztirobga soladi va o'sha kayfiyatini satrlarda quyidagicha ifodalab qoldirgan:

Shahr chu do'zax kibi zindon edi,  
Tashqari uchun ravzai rizvon edi.  
Tashqari erdi bori noz-u naim,  
Shahr ichida erdi azobi alim...  
Tashqari erdi bari polizu bog',  
Shahr ichida erdi base dard-u dog' (7-bet)

Durbek qamal ichra qolgan Shahar aholisining ayanchli holatini yuqoridagi parchada kuzatilganligi kabi qarshilantirish san'atidan mahorat bilan foydalanib badiiy ifoda etadi. Doston muallifi tasvirdagi o'sha voqealarning shaxsan guvohi bo'lgan. Asarda alohida ta'kid bilan qayd qilinishicha, qamal uch oy davom etgan:

Ushbu qalob xalq uch oyi tamom  
Yer edilar g'ussa-vu g'am subh-u shom.  
Banda alar birla giriftor edim,  
Borchasidin voqifli asror edim(8-bet)

Adib mana shu qamal davrida taqdiridoshlari bilan birgalikda g'am sharobini ichib, goh Alloh kalomi, goh kitob o'qish bilan mashg'ul bo'ladi. Shoirning yozishicha, turkiy til bilan Yusuf va Zulayho qissasini nazmda bayon etish uning ko'nglida tug'ilgan Shirin niyati edi. Balx qamaqli davrida Durbek forsiy tilda nasrda bitilgan "Qissasi Yusuf" bilan tanishadi. Biroq shoir bu asar va uning muallifi haqida dostonda hech qanday ma'lumot bermaydi. "Yusuf va Zulayho" haqida yirik hajmli doston yozishga kirishgan shoir, shubhasizki, "Yusuf va Zulayho" ning zukko kitobxonlar orasida keng tarqalgan xalq kitobi nusxalari bilan ham tanish bo'lgan. Shuningdek, shoirning "Goh o'qir edim zi kalomo iloh" misrasi uning Qur'oni Karimdagi "Yusuf" surasidan ham ijodiy ta'sirlanganligini dalillaydi.

Bugungi tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra dunyo bo'ylab Yusuf va Zulayho ishqiy-sarguzashtlariga atab bitilgan asarlar soni 140dan oshiq va bu asarlarning barchasi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa Abdurahmon Jomiy yozib qoldirgan "Yusuf va Zulayho" dostoni asarlar ichida alohida o'rin egallaydi. Fors tilida nazm qilingan ushbu dostonni tahlil qilishda tushunarli bo'lishi uchun Olimjon Bo'riyevni tarjimasini tanlab oldik. Ushbu tarjima forsiy matnga juda yaqin, o'z jozibasini yo'qotmay, aksincha, badiiy san'atlardan foydalanilganligi bilan har qanday o'quvchining e'tiborini tortadi. Doston yaratganga iltijo bilan boshlanadi:

Ilohiy g'unchayi umiddan och yuz,  
Abadiy bog'idin bir gulni ko'rguz.  
Ochib gul g'unchani ko'nglimni shod et,  
U gulning atri birla hushdimog' et.  
Muallif yaratgandan o'ziga ilohiy ilhom, ilm so'rarkan, uni gul g'unchaga o'xshatadi.  
Dostonning ilk misralaridanoq tashbeh san'atining go'zal namunasini ko'rishimiz mumkin.  
Nodonlar bazmida o'zni unutgay,

U maydan ilgida kim tom tutgay.  
Kel, ey Jomiy, xijolat bo'lma zinhor,  
Olib kel, sofmi quyqa, har neki bor.  
Jomiy ushbu dostonida ishqning barcha ko'rinishlar haqida kuylamoqchiligini aytadi.  
Bilamizki Jomiy ham Navoiy singari tasavvufiy ishq kuychisidir. Tasavvufda ishq uch turga bo'linadi:

1.Majoziy ishq (Bashariy ishq)

2.Ruhiy – ma'naviy ishq

3.Ilohiy ishq (Ruhoniy ishq)

Shoir dostonni ustalik bilan nazmiy ipga teradi.

Dostonning aslida shunday bitilgan:

Chu to'tiy ta'bro sozam shakarxo,

Zu husni Yusufu ishq Zulayho.

Xudo az qissaho chun ahsanash xond

Bu ahsan vajah az-zon xoham suhan rond

Tarjimasi:

To'ti yang'lig' tab'im etsin huvaydo,

Yusuf zebo, Zulayho unga shaydo.

Xudo bu qissani derkim yagona,

Uning vasfini aylay jovidona.

Shoir o'z ishqiy-irfoniy dostonida adolat va haqsizlik, qanoat va besabrlilik, hayo va fahsh, xurramlik va g'amxo'ronalik kabi abadiy va azaliy ziddiyatda bo'lgan inson hislari, fazilatlari va qusurlarini keng maydonga olib chiqadi. Insondagi ham ezgu, ham yomon xususiyatlarning o'zaro kurashlari ularning oqibatlarini tasvirlangan bu kabi asarlar kishini o'z-o'zini isloh qilishga undaydi.

Sayyor syujet maqomida Sharq xalqlari adabiyotida "Yusuf va Zulayho" dostonining xilma-xil namunalarini yaratildi. Sanab o'tilgan sayyor voqealarning ayrimlaridan o'nlab, hatto yuzlab asarlar yaratilgan. Agar Durbekning ijodidagi "Yusuf va Zulayho" dostoni haqida gap yuritilsa, "Yusuf va Zulayho"- Sharq xalqlari orasida mashhur va keng tarqalgan ishq qissasi deyiladi. Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayho" dostonida ishqiy ilohiy masalalari yetakchilik qilsa,

Durbekning qalamiga mansub "Yusuf va Zulayho" dostonida esa xaloskorlik, sabr-u matonat masalalari e'tiborga olinganligi ko'rinadi. Bundan shu fikr kelib chiqadiki, har bir davr hamda ijodkorning o'z "Yusuf va Zulayho"si bor. Yusuf va Zulayho mavzusi insoniyatning o'lmas timsollaridan biridir. Asardagi ishq mavzusi zamirida Allohga bo'lgan ilohiy sevgi birinchi o'rinda turadi. Doston didaktik ko'rinishdagi asar namunasi. Durbek qalamiga mansub "Yusuf va Zulayho" dostonida sevishganlarning ehtiroslarini jilovlash borasidagi irodalarning sinovdan o'tishi yuksak mahorat bilan tasvirlanadi. Bu borada Zulayhodagi ishq mayidan ko'proq sarxush bo'lishga moyillik bilan Yusufdagi sabr-matonatning to'qnash kelishi asardagi ziddiyatlarning eng yuksak cho'qqisi bo'lib xizmat qiladi. Misr Azizi Yusufni sotib olarkan, jufti haloliga uni qul sifatida emas, balki farzand deb bilishini o'tinadi.

Bu esa Yusufning zimmasiga yanada mas'uliyat yuklaydi. Misr Azizi Yusufni Zulayho xizmatiga yuboradi. Shunday qilib sevishganlar yaqindan uchrashadilar.

Biroq bu uchrashuv Yusufni jiddiy qarshiliklar bilan kutilgan visol onlarini uzoqlashtiradi.

Shoir Yusufning atayin Zulayhoning ko'ngil istaklariga qarshi borishi manzaralarini o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol gavdalantirib beradi:

Yusuf aytdiki: Holo xush siyom,  
Men edim ozod, bo'lubmen g'ulom.  
Men edim o'z mamalakatimda amir,  
Munda bukun xor erurmen, haqir.  
Meni falak qildi otamdan judo,  
Shoh edim, emdi bo'lubmen gado.  
Ko'rsa tushinda Zulayho gar mani,  
Men dag'il tushumda ko'ribmen ani.

Yuqoridagi iqtibos dostonida Yusufning Zulayho enagasiga aytgan so'zlaridir. Bundan Yusufning ham sadoqatli oshiq ekanligi yaqqol sezilib turadi. Enaga uning so'zlarini Zulayhoga yetkazadi va qizni ortiqcha fig'on qilmasdan tangriga shukr qilishga chaqiradi:

Yusuf erur xizmatingga subh-u shom,  
Sabr bila etgasen oxir bakom.  
Sabr bila tangri berur komil dil,  
Sabr qil-u, sabr qil-u sabr qil

Enaga tilidan aytilgan bu so'zlar dostonida ilgari surilgan yetakchi g'oyalardan biridir.

Ayni choqda qamal ichida qolgan Balx shahri aholisini ham shoir turli ishoralar yordamida sabr-u bardoshli bo'lishga chaqiradi. Muhabbat iztiroblari Zulayho bardoshidan ustun keladi. Uni enagasi qanchalik sabr qilishga undamasin, baribir Zulayho faqat visolga intiladi.

Yusufni xilvatga chorlab, unga ko'ngil istaklarini bayon etadi. Biroq Yusufning gunohga botgisi, zinoga yo'l qo'ygisi kelmaydi. Zulayho tuhmat va malomat qilib uni zindonga soldiradi. Ammo keyinchalik u bu qilgan ishlaridan pushaymon ham bo'ladi. Iloj topib Yusufning ovozini eshitishga, banddan ozod bo'lgan Yusufning uzoqdan bo'lsa ham jamolini ko'rish bilan taskin topishga harakat qiladi.

Shoir mamlakat obodonchiligi, el-yurt farovonligini davlat boshliqlarining adolatli siyosat yurgizishlari hamda tadbirkorliklarda deb biladi. Dostonida Misr shohi Rayyon ana shunday kishilardan biri sifatida tasvirlanadi. Rayyon davlat ishlarini boshqarish uchun o'zidan ko'rsatmalari bilan Misr xalqi dehqonchilikda misli ko'rilmagan natijalarni qo'lga kiritadi. Olti yil davomida ocharchilik azobini boshidan kechirgan xalq farovon hayotga tashna edi. Yusuf xalqning ana shunday ezgu istagining amalga oshirishda katta xizmatlar ko'rsatadi.

Dostonida asarning xalq og'zaki ijodi nusxalarida bo'lgani kabi qahramonlik ham ulug'lanadi. Yusufning katta o'g'li Meshomning maydonga kirib bir hamla bilan Yahudo bilan Sham'unni chetga olib otishi va qolgan sakkiz og'a maydonga chiqishga jur'at etolmaganliklarida folklorning ta'siri kuchli ekanligi sezilib turadi. "Yusuf va Zulayho" dostonining qurilishi, voqealar va obrazlar mavjud bo'lib, ular asosan Yusuf sarguzashtlari atrofida birlashgan hamda dostonidagi asosiy qahramonlarning qator fazilatlarini ochishga xizmat qilgan.

Aruzning sari bahrida (muftailun, muftailun, foilun) bitilgan bu asar ravon uslubda yozilganligi hamda badiiy tasviriy vositalarga boyligi, shuningdek, o'zbek mumtoz adabiyotidagi badiiy jihatdan ancha mukammal ijod etilgan dostonlardan biri ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Bulardan tashqari mazkur asar Durbekdan keyin shu mavzuda ijod qilgan o'zbek va boshqa qardosh xalqlar shoirlari uchun ham ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "Yusuf va Zulayho" dostoni aniq bir badiiylikka asoslanmagan. Shuningdek, aniq bir voqea-hodisaga asoslanib yaratilmagan. U har xil davrda, har xil yozuvchilar tomonidan yaratilgan asardir. Yuqorida keltirgan fikrlarimiz buning yaqqol dalilidir. Ya'ni durbekning ijodidagi "Yusuf va Zulayho" dostonida xaloskorlik, sabr-matonat masalalari e'tiborga olinsa, Abdurahmon Jomiy qalamiga mansub "Yusuf va Zulayho" dostonida esa ishqiy, ilohiy masalalar yetakchilik qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. R.J.Vohidov, H.P.Eshonqulov. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent-2006-y. 160-166- bet
2. N.Mallayev, O'zbek adabiyoti tarixi, birinchi kitob, "O'qituvchi " nashriyoti, Toshkent-1976-y. 270-bet
3. Abdurahmon Jomiy. Saylanma, Adabiyot va san'at. Toshkent-1971-y. 357-bet
4. w.w.w.pedagoglar.org.